

PAPER

XURSHID DAVRON IJODIDA AYOL OBRAZINING O‘ZGACHA IFODASI

Usmanova Ziyodaxon Ilxomjon qizi ¹, *

¹ Chirchiq davlat pedagogika universiteti doktoranti

* z.usmanova@cspu.uz

Abstract

Mazkur maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Xurshid Davron ijodida ayol obrazi va uning o‘ziga xos badiiy talqini tahlil qilinadi. Shoir asarlarida ayol siymosi nafaqat mehr, sadoqat va matonat timsoli, balki jabr-zulmga duch kelsa ham qalbida ezgulik va go‘zallikka intiluvchi ulug‘ ma’naviy kuch ramzi sifatida gavdalanadi. Xususan, eridan jabr ko‘rib, kundalik hayotda og‘ir sinovlarni boshidan kechirayotgan ayol obrazi Xurshid Davron she’riyatida alohida o‘rin tutadi. Bunday ayol tashqi azoblarga qaramay, hayotning go‘zalligini sevadi, orzu va umidlarini asrab qoladi. Shoirning poetik mahorati shundaki, u ayolning ichki dunyosidagi ziddiyatni – tashqi jabr va ichki go‘zallikka muhabbatni – nozik badiiy vositalar orqali yoritib beradi. Maqolada ayol obrazi orqali insoniy qadriyatlar, milliy ruh va estetik qarashlarning uyg‘unligi ochib berilib, Xurshid Davron ijodida ayol timsolining umuminsoniy ahamiyati tahlil qilinadi.

Key words:

ayol obrazi, jabr va matonat, go‘zallik sevgisi, poetik tasvir, badiiy talqin, milliy ruh, umuminsoniy qadriyatlar, insoniylik, estetik ahamiyat.

Kirish

Xurshid Davron o‘zbek adabiyoti rivojiga katta hissa qo‘shgan adiblardan biridir. Uning ijodida lirik, epik va dramatik turdagi asarlarni birdek uchratamiz. Shoir sifatida vatan tarixi, ona, ayol, bolalik, tinchlik, ijtimoiy muammolar kabi o‘nlab dolzarb mavzularda qalam tebratgan

bo‘lsa, yozuvchi va dramaturg sifatida tarixiy qahramonlarimizning badiiy timsollarni yaratishda o‘ziga xos uslubni tanlaganiga guvoh bo‘lamiz. Badiiy obraz vositasida ijodkor real hayotdagi kishilarning ayrim xususiyatlarini umumlashtirgan holda yaxlit figurani yaratadi yohud tarixiy shaxslarning ma’lum qirralarini takomiliga yetkazib badiiy obraz darajasiga olib

Compiled on: December 16, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Humanities* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

chiqadi. Uning asarlarida oddiy dehqon obrazidan tortib buyuk daholarning xarakterlarigacha uchramiz. Bunda yozuvchining kuzatishlari, xayol dunyosi, hayot falsafasi, olam va odam haqidagi qarashlari yetakchi ahamiyat kasb etadi. Badiiy obrazning mohiyati, kishilar ruhiyatida uygʻotgan emotsional taʼsiri, dialoglari, atrofidagi voqealarga munosabati asar muvaffaqiyatini taʼminlaydi. Ijodkor obyektiv olamni idrok etish va subyektiv ijodiy tafakkurni oʻzaro dialektik uygʻunlikda birlashtiradi. Buning natijasida, mavjud obyektning tashqi belgilari bilan birga, uning ichki mohiyati, estetik qiymati va umuminsoniy ahamiyati yorqin ochiladi. Shu bois, badiiy obraz real voqelikning oddiy aks ettirilishi emas, balki uning chuqur va umumlashtirilgan badiiy modeli hisoblanadi. Shoirning birgina “U ayolning qoʻllari dagʻal” misralari bilan boshlanuvchi moʻjaz sheʼrini olaylik:

U ayolning qoʻllari dagʻal,

U ayolning koʻylagi dagʻal,

Uni har kun kaltaklar eri,

Har kun yuzda koʻkarar dogʻlar. (Davron X. 1979, 10-bet)

Bir qarashda sheʼr qilib yozishga arzimaydigandek tuyulgan, atrofdagi oddiy insonlarning baʼzan gʻashini, baʼzan esa achinish hissini uygʻotadigan jamiyatdagi zolim er va jabrlangan ayolning hayoti shoirni befarq qoldirmaydi. U ayolning dagʻal qoʻllari va koʻylagi orqali achchiq hayotning ijtimoiy qiyofasini ochib beradi. Lirik qahramon jamiyatdagi eng himoyasiz qatlam vakili. Qoʻllarining dagʻalligi ogʻir jismoniy mehnat, qashshoqlik va turmush sharoitining pastligidan darak beradi. Voqelikka real koʻz bilan qaragan shoir hech nimani boʻrttirmaydi, ayolni faqat goʻzal hayotning gultoʻji sifatida koʻrmaydi. Biz oʻrganib qolgan sheʼrlarda ayol nozik xilqat, mehribon ona, gʻamxoʻr va sevikli yor sifatida talqin etilsa, Xurshid Davron tanganing ikkinchi tarafini oʻquvchiga shafqatsiz hayot manzarasi orqali koʻrsatadi. Ayolning kiyimi ham “dagʻal”, bu esa ayolning oʻziga gʻamxoʻrlik qilishga imkoni yoʻqligi yoki bunga eʼtibor bermasligini anglatadi. Aslida “dagʻal” soʻzining tanlanishi va ikki misrada takrorlanishida ham shoirning badiiy niyati yashirin. Bu soʻzning zamiridan “koʻrinishi, tuzilishi beoʻxshov”, “qoʻpol ishlangan, joʻn”,

“hazm boʻlishi qiyin, badhazm”, “kishiga qattiq tegadigan, qattiq botadigan, sovuq, qoʻpol” (Oʻzbek tilining izohli lugʻati, D harfi, 580) kabi maʼnolar anglashiladi. Ayolga nisbatan bunday sifatlar odatda qoʻllanilmaydi, ayniqsa ayol jabrdiyda boʻlsa, ammo sheʼrdagi ayol obrazi beoʻxshov yoki tund emas, aksincha u hayotni sevuvchi, umid bilan yashovchi ayol ekanligini keyingi jummalarda gʻoyat taʼsirli ifodalaydi. Shoir mehnatdan qavargan qoʻllarni eʼtiborsizlikning, beoʻxshov holatga kelgan kiyimlarni jamiyatda ayollarga nisbatan adolatsizlikning bir koʻrinishi oʻlaroq aks ettiradi. Kunimizda ayollar va erkaklarning teng huquqli ekanligi qonunlarda belgilab qoʻyilgan bir vaziyatda, hali-hanuz ayrim erkaklarning nazarida ayolni bir buyum sifatida koʻrish egosi qotib qolganidan ham koʻz yuma olmaymiz. Eng achinarlisi esa, atrofdagi odamlar, jamiyat buni oddiy hol, er-xotin hayotiga aralashish esa “ahmoqgarchilik”, “er-xotin urushi – doka roʻmolning qurishi” tarzida ochiqlab, oʻzlarini oqlashga urinishayotganidir.

Sheʼrda erning zoʻravonligi kundalik, oddiy holat sifatida tasvirlangan. Erning ayolni doimiy ravishda kaltaklashi oilada zoʻravonlikning normal holatga aylanib qolganini koʻrsatadi. “Har kun yuzda koʻkarar dogʻlar” misrasi esa zoʻravonlikning tashqi belgilari va uning doimiy oqibatlarini ifodalaydi. Bu oqibatlar ayolning psixikasida chuqur travmalar qoldiradi: oʻziga nisbatan ishonchsizlik, qoʻrquv va umidsizlik hissini paydo qiladi. Ayol uchun bu holatdan qochishning iloji yoʻqdek tuyuladi.

Bu sheʼr faqat bir ayolning fojiasi haqida emas, balki chuqur ijtimoiy muammoni – oilaviy zoʻravonlikni koʻrsatib beradi. Sheʼr, jamiyatimizdagi koʻpchilik shu kabi qiyinchiliklarga duch keladigan, ammo ovozi eshitilmaydigan jabrdiydalar nomidan aytilgan faryoddur. Zoʻravonlikning bunday oddiy va achchiq tarzda tasvirlanishi oʻquvchiga kuchli hissiy taʼsir koʻrsatadi. Jamiyatda shakllangan ayrim noxush stereotiplarni psixologik nuqtayi nazardan tahlilga tortadigan boʻlsak, quyidagi bir qancha holatlarga duch kelamiz: a) ijtimoiy stereotiplar – erning ayoldan ustunligi va uni jazolash huquqiga ega degan notoʻgʻri tasavvurlar; b) qurbon psixologiyasi – ayolning bu vaziyatga

moslashib, undan chiqish yo'lini topa olmasligi yoki shunday hayotga ko'nikishi; d) jim qolish – zo'ravonlikning ko'pchilik tomonidan tan olinmasligi yoki e'tiborsiz qoldirilishi kabi. She'r juda oddiy so'zlar bilan jamiyatdagi og'riqli muammolarga ishora qilib, o'quvchini bu haqda o'ylashga majbur qiladi.

Obraz real prototipdan bir qancha xususiyatlari bilan farq qiladi:

- Shartlilik va ramziylik. Obraz real hayotdagi shaxs kabi aniq shaklga ega bo'lishi bilan bir qatorda ijodkorning xayol dunyosi mahsuli hamdir. Shoir lirik qahramonni boricha emas, o'zi tasavvur qilgani kabi jamiyatdagi ayrim qatlamning ramzi sifatida yaratadi.

- Umumlashtirish. Badiiy obraz hayotning ma'lum davrini emas, balki ularning negizidagi eng muhim, doimiy va umumiy jihatlarni qamrab oladi. Shoir xususiylikdan voz kechib, voqelikning tipik va umumiy belgilarini ilg'ab oladi.

- Hissiy-emotsional ta'sir. Badiiy obraz faqat aqlga emas, balki insonning his-tuyg'ulariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. U orqali kitobxon yoki tomoshabin voqelikni estetik jihatdan o'zlashtiradi va qahramonning ruhiy olamiga sho'ng'iy oladi.

Kecha nogoh yo'lning chetida

Ko'rib qoldim o'sha ayolni:

U hidlardi men sezmay o'tgan

Mittigina marvarid gulni. (Davron X. 1979, 10-bet)

She'r kompozitsion jihatdan qarama-qarshilik, ya'ni kontrast asosiga qurilgan. Birinchi bandda ayolning qiynoqlari, azoblari, hayot mashaqqati tasvirlansa, ikkinchi bandda uning ichki olami, ruhiy ehtiyoji, ma'naviy go'zalligi qalamga olinadi. Ayni mana shu kontrast asarga o'zgacha jilo va kuch berib turadi. Ayoldagi tashqi bosim, ruhiy muvozanatning buzilishiga qaramay, hamon go'zallikka oshufta ekanligi shoirni ajablantiradi. Jamiyatimizda mavjud bo'lgan ayolga ojiza sifatida qarash, ularning xohish-istaklari, orzulari bilan qiziqmaslik illati ancha tomir yoyganligi sir emas. Ayol jamiyatdagi ana shunday ezilgan, zo'ravonlik qurboni bo'lgan minglab jabrdiydalarning umumlashma obrazi. Kunimizda ham ijtimoiy tarmoqlarda ayollarga nisbatan tazyiq, zulmkorlik holatlari haqida xabarlar bot-bot ko'zga tashlanadi. Jamiyatning ziyoli, ilg'or qatlami bunga o'z

munosabatini bildiradi. Ammo ularga amaliy ko'mak va zulm qilganlarga qonun doirasida jazo berilmas ekan Xurshid Davron tasvirlagan ayollar ko'payib boraveradi.

Ana shunday og'ir hayot sharoitida yashayotgan ayolning qalbida umid so'nmagan, u hayotga tashna, uning eng kichik go'zalliklarini ilg'ay oladigan darajada sohir qalb egasi. She'rning ikkinchi bandida ayolning ichki dunyosi aks etadi. Uning yo'l chetida paydo bo'lishi, jamiyatda e'tiborsiz qolgan, chetga surilgan shaxs sifatida o'z o'rnini ko'rsatadi. U hayotning asosiy oqimidan uzoqda, bir chetda turibdi. She'rning eng ta'sirli nuqtasi ayolning "mittigina marvarid gulni hidlashi"dir. Bu harakat ijtimoiy-psixologik jihatdan juda chuqur ma'no kasb etadi: birinchidan, noziklikka intilish ayol psixologiyasining ajralmas qismi ekanligi va ayolning qo'llari dag'al bo'lsa-da, ruhning hali ham tirikligini, zo'ravonlik va og'riqlar uning qalbini butunlay o'ldira olmaganini anglatadi. "Marvarid gul" go'zallik, soflik va qadrlilik timsolidir. Ikkinchidan, ayol qalbida umid bor. Gulni hidlash orqali ayol go'yo hayotning unutilgan go'zalliklarini, oddiy quvonchlarini eslaydi. Bu uning hayotga bo'lgan muhabbati, kelajakka bo'lgan ishonchining kichik bir uchqunidir. Uchinchidan, bu lahza, ehtimol, uning kundalik zo'ravonlik, qo'rquv va og'riqlardan ozod bo'lgan yagona onidir. Gulni hidlash – uning ichki dunyosi bilan, o'zining "men"i bilan qayta bog'lanishiga ishora qiladi. Uning atrofdagi voqelik, og'riq va qiyinchiliklar o'rniga, go'zallik va osoyishtalik hukm suradigan lahzasi. To'rtinchidan, "Men sezmay o'tgan" jumlasini she'r muallifining o'z-o'ziga tanqidiy qarashidir. U jamiyatdagi jabrdiyda insonlarni, ularning nozik hislarini payqamay, beparvo o'tib ketayotganidan afsuslanadi. Bu, ayni paytda, boshqa odamlarni ham atrofdagilarga e'tiborli bo'lishga undaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, shu kichik asar orqali shoir zo'ravonlik qurbonining hayoti faqatgina og'riq va qayg'udan iborat emasligini, balki ular ham go'zallikni qadrlaydigan, baxtga intiladigan nozik ruh egalari ekanligini ko'rsatib beradi. She'rning yakuni o'quvchini achinishga emas, balki shafqatli bo'lishga, atrofdagi "ko'rinmas" qahramonlarni

ko'rishga, ularning kichik umidlariga e'tibor berishga undaydi. Bu she'r jamiyatdagi og'riqli muammolar haqida so'zlaydigan chuqur ma'noli psixologik portret desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xurshid Davron. Qadrdon quyosh – T.: “Adabiyot va san’at”, 1979.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati D harfi – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari – T.: “Akademnashr”, 2018.
4. Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – T.: “Kamalak”, 2016.